



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

NIMA UCHUN INGLIZ TILINI O'RGANISH KERAK?

Zubaydova Nilufar

O'qituvchi Samarqand davlat chet tillari instituti

Shamsiyeva Sevinchay Nodirovna

Talaba Samarqand davlat chet tillari instituti

sevinchshamsiyeva70@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola nima uchun ingliz tilini o'rganish kerakligining sabablari va uning ahamiyatlarini tahlil qiladi. Bugungi kunda ingliz tili barcha sohalarda, iqtisodiyot, ta'lim va madaniyat sohalarida global til sifatida ishlatalinadi. Ingliz tili ilm-fan, texnologiyalar, turizm va diplomatik aloqalar tili hisoblanadi. Maqola ingliz tilini o'rganishdagi afzalliklarni va qiyinchiliklarni, hamda nima uchun ingliz tilini o'rganish kerakligining sabablarini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ingliz tilini o'rganish uchun zarur bo'lgan yondashuvlar va qarashlar hamda uni tez o'rganishning samarali usullari aniqlashga yordam beradi va xorijiy tajribalar orqali samarali yechimlar taklif etadi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, Iqtisodiyot, Ta'lim, Madaniyat, Global til, Ilm-fan, Texnologiya, Turizm, Diplomatik aloqalar.

Ingliz tili dunyoda eng ko'p insonlar tomonidan so'zlanadigan tillar qatoriga kiradi. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganish insonlarning shaxsiy va professional hayotida ko'p foyda keltirishi mumkin. Atrofimizda til o'rganuvchi kishilar, ayniqsa yoshlar ko'payib bormoqda. Nima uchun ingliz tili dunyodagi eng mashhur til? Buning sabablari ko'p. Tarixiy jihatdan oladigan bo'lsak, 17-asrdan boshlab Angliya dunyoning ko'plab davlatlari ustidan hukmronlik o'rnatdi va ingliz tili savdo tiliga aylana boshladi va Angliya tasarruf etgan davatlarda xalqlar mustaqil bo'lsa ham, Ingliz tilini so'zlashuv tili sifatida tan olishdi. 20-asrda esa Amerika davri boshlandi, bu davrda AQSH eng kuchli mamlakatga aylanib, o'z mahsulotlari bilan jahon bozorlarini to'ldirdi. Bu mamlakatda kompyuter va internetni yaratilishi ingliz tilini butun yer shariga yoydi. Ingliz tilini o'rganish insonlarga bir qancha imkoniyat eshiklarini ochadi. Nima uchun aynan ingliz tilini o'rganish kerak? Hozir buning bir qancha sabablarini keltirib o'tamiz:

1. Xalqaro aloqa. Dunyo bo'y lab 1,5 milliard odam ingliz tilida gaplashadi, bu ingliz tili xalqaro muloqot uchun eng mashhur va qulay til ekanligini ko'rsatadi. Chet elda sayohat qilish, o'qish yoki ishlash uchun bu tilni bilish insonlarga turli madaniyat va kelib chiqishi har xil bo'lgan odamlar bilan muloqot qilishda yordam beradi. Ingliz tilini bilish orqali yangi do'stlar orttirish va dunyoqarashni kengaytirish mumkin.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

2. Ishga qabul qilish imkoniyatlari. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida ko'pgina xalqaro kompaniyalar bilan sheriklikda ishlash ommalashmoqda hattoki ko'pgina xorij kompaniyalari o'z xodimlaridan ingliz tilini o'rghanishni asosiy yoki ikkinchi til sifatida talab qilmoqda. Bu tilni o'rghanish orqali ko'pgina kompaniyalar bilan g'oyalar almashish yoki shaxsiy rezyume ochib va uni rivojlantirib raqobatdosh mehnat bozorida ajralib turish mumkin.

3. Oliy ma'lumot. Hammaga ma'lumki ingliz tili bir qancha universitetlar uchun ta'lim tili hisoblanadi. Aynan chet elda ta'lim olmoqchi bo'lgan talaba yoshlar uchun bu tilni bilish juda muhim hisoblanadi. Yoshlar bu tilni o'rghanish orqali xohlagan universitetga o'qishga kirish va o'qishda muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

4. Madaniy boylik. Ingliz tilini o'rghanish yangi madaniyatlarni o'rghanishga yo'l ochadi. Ingliz adabiyoti, musiqasi va kinosi butun dunyo bo'ylab ommabop madaniyatga sezilarli tarzda ta'sir ko'rsatadi. Bu orqali insonlar turli xil madaniy tadbirlarda ishtirok etishi mumkin.

5. Ingliz tili internet tili hisoblanadi. Ko'pgina veb sahifalar, platformalar hattoki ilovalar ham ingliz tilida yuritiladi. Buni bilish ko'pgina forumlar, bahsmunozaralarda qatnashish uchun imkoniyat mavjudligini anglatadi.

6. Ingliz tili-sayohatlar tili. Dunyoning barcha mamlakatlarida ingliz tili odamlar tomonidan tushuniladi. Mahalliy aholi bilan suhbat qurish imkoniyati yoki ulardan yordam so'rash misol uchun yo'lni ko'rsatib yuborishni so'rash, ovqatga buyurtma berish qiyinchiliklarsiz amalga oshadi.

7. Ingliz tilini bilish boshqa davlatlarga ko'chib o'tib ozroq yashash, o'qish va ishslashga zamin yaratadi. Barcha bilgan mashhur universitetlar MIT, HARVARD, OXFORD o'quv programmalari barchasi ingliz tilida.

8. Ingliz tili-media tili. Birinchi ma'lumotlar, eng so'nggi yangiliklar, dunyo xabarlari barchasi birinchi bo'lib ingliz tilida ommaga tatbiq qilinadi. Bu orqali birinchilardan bo'lib barcha xabarlardan bahramand bo'lish mumkin.

9. Ingliz tilini o'rghanish orqali boshqa tillarni ham o'rghanish osonroq bo'ladi. Ingliz tili oson til bo'lganligi tufayli uni o'rghanish oson, bu tilni o'rghanish mobaynida insonlar til o'rghanish qobiliyatini oshirishadi va miya faoliyatini ham yaxshilashadi.

10. Bu tilni bilish va o'rghanish orqali insonlar nafaqat til balki, boshqa narsalarni ham o'rghanish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Inliz tilini yaxshi bilish insonlarga haqiqiy inglizcha filmlar, musiqalar va dunyoning minglab ingliz tilida yozilgan adabiyotlarini o'rghanishga imkon yaratadi.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

Babbel ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzida 7,5 milliard inson bo'lsa shulardan 20% insonlar ingliz tilini bilishar ekan. Bundan tashqari dunyoning 196 ta davlatidan taxminan 60 tasida ingliz tili asosiy til hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ingliz tili ilm-fan, texnologiyalar, turizm va diplomatik aloqalar tili hisoblanadi. Xohlagan dasturlash tilini oladigan bo'lsak, ularning hammasi ingliz tilida yozilgan. Eng yaxshi kitoblar, maqolalar, o'quv dasturlari ingliz tilida chop etiladi. Bundan tashqari ingliz tili 53 ta davlatning rasmiy tili hisoblanadi va rivojlangan davlatlarda bu tilda keng foydalaniladi. Tadqiqotlarga qaraydigan bo'lsak, Amerikada taxminan 231 million inson ingliz tilidan birinchi til sifatida foydalanadi. Kanadada esa bu ko'rsatkich 19 millionni tashkil qiladi. Yevropada 450 million kishi ingliz tilini bilishsa, Osiyoda ham bu ko'rsatkich juda yuqori hisoblanadi.

Ingliz tili tilini o'rganish orqali ko'plab afzalliklarga erishish mumkin. Bejizga ingliz tili "imkoniyatlar eshigi" deya ta'riflanmagan. Bu tilni bilish orqali turli xil mamlakatlarda samarali muloqot olib borish mumkin va bu insonlarga bir qancha yengilliklarni yaratadi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, sayohat mobaynida ingliz tilini bilgan insonlar umuman havotir olishmaydi negakim, boshqa insonlardan osongina yo'nalish so'rash, ekskursiyalarga borish, ovqatga buyurtma berish va mahalliy aholi bilan suhbatlashish ularga qiyinchilik tug'dirmaydi. Yana bir afzalliklaridan biri shuki, barcha aviakompaniyalar, turizm va kino sanoati kabi ko'plab muassasa, sanoat korxonalari ingliz tilini rasmiy til sifatida ishlatishadi va bu sohada ishlovchilardan ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinadi. Bu shuni anglatadiki, yosh kadrlar institutni bitirgandan so'ng, bemalol til sertifikat orqali ishga kira olishadi va tanlash mumkin bo'lgan kasblar soni ko'proq ekanligini anglatadi.

Ingliz tilini o'rgsnishga keladigan bo'lsak, eng samarali va oson usullardan biri bu tilga butunlay singib ketishdir. Ingliz tilidagi nutq yoki suhbatlarni tinglash orqali, film yoki teleko'rsatuvlarni tomosha qilish orqali o'rganish mumkin. Bu tilni o'rganishning eng yaxshi usuli - u bilan muntazam ravishda shug'ullanishdir. Telefon va ijtimoiy tarmoq sozlamalarini inglizchaga o'zgartirish, doimiy ravishda ingliz tilida kinolar tomosha qilish, qo'shiq tinglash, inglizcha barcha klassik adabiyotlar, jurnallar, gazetalar, veb-saytlar, elektron pochta xabarlaridan tortib kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsalarga yozilgan gaplarni o'qish bu tilni tezroq o'rganishga yordam beradi. Shuni aytish joizki, ingliz tilini o'rganish boshqa tillarga qaraganda osonroq, birinchidan o'rganish uchun manbalar ko'p hamda ingliz tili oson alifboden tarkib topgan.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o’rganish nafaqat bugungi kun uchun balki kelajak uchun ham samarali hisoblanadi. Ingliz tilining xalqaro til sifatidagi o’rni beqiyosdir. Uning xalqaro biznes, ilm-fan, turizm va diplomatiya sohalarida keng tarqalishi bugungi kunda uni muhim vositaga aylantirgan. Xalqaro muloqotdan tortib, martaba imkoniyatlari uchun keng eshiklarni ochgan til- ingliz tili hisoblanadi. Ta’lim tizimini yaxshilash hamda kuchli, yetuk kadrlarni tayyorlash, ta’lim tizimida yuqori cho’qqilarni egallash uchun ham ingliz tilini o’rganish zarur. Ingliz tili ikkinchi til sifatida o’rgatilayotgan davlatlarga ham yanada qulayroq va samarali uslublar yaratishga e’tibor qaratish zarur. Bularni amalga oshirish orqali ko’plab insonlarning ta’limini oshirishga naafaqat ularni xalqaro miqyosda ish o’rinlari bilan band qilishga,yoshlarni turli xil nufuzli oliygohlarda o’qitib yetuk kadr bo’lishiga hissa qo’shgan bo’lamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. R. A Utkurovich, R. G Utkurovna. “Teaching English Language To Primary Level Pupils At School” Ijodkor O’qituvchi 3 (36), 103-105, 2024.
2. M Orzikulova, G Rustamova “Methods Of Improving Speaking Skills For Kids” Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 151-154, 2024.
3. Jumayeva, M. (2022). Analysis Of The Views Of Scientists Of The Renaissance, Based On A Unique Approach To Pedagogy And Education And Upbringing. Science and Innovation, 1(5), 26-29.
4. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). Innovative Methods and Tools in Higher Education. Science and Innovation, 2(11), 708-715.
5. Jumayeva, M., & Jumatova, B. (2023). Linguopragmatic Features Of Expressions Expressing Feelings In Uzbek And English Literary Texts. Science and innovation, 2(C12), 166-169.
6. Dadaboyev, H., & Xolmanova, Z. T. (2015). Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Toshkent: Ilm Ziyo Nashriyot Uyi, 22.
7. Xolmanova, Z. Eski o ‘zbek tiliga xos ayrim leksemalar semantikasi va lingvokulturologik xususiyatlari. O ‘ZBEKİST, 38.
8. Jumayeva, M. B. (2023). Classifications of Cardinal Numbers and Ordinal Numbers in English And Uzbek. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnalı, 3(2), 132-134.
9. Mohira, J. (2023). Problematic Situations That Arise in Learning Foreign Languages and Their Solutions. International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory, 1(2), 414-417.
10. Jumayeva, M. B. (2023). Chet Tillarini O’rganishda Ommaviy Axborot Vositalarining O’rni va Ahamiyati. Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnalı, 3(5), 240-242.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 9

11. Makhmudova, G. N., & Gulomova, N. F. (2023). Unlocking the potential of the digital economy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. *π-Economy*, 16 (4), 7–25. DOI: https://doi.org/10.18721/JE_16401.
12. Гуломова, Н. (2022). Основные компоненты развития «умного» туризма в регионах. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 63-67.
13. Makhmudova, G., Gulomova, N., & Mirzaev, D. (2022). Legal aspects of cryptocurrency and blockchain technologies: Uzbekistan and foreign experience.
14. Sattarova, D. (2023). Komunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. Молодые ученые, 1(22), 41-43.
15. Suleymanova, N. M. (2020). On The Nominative Nature Of The Sentence. Theoretical & Applied Science, (4), 307-309.
16. Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 25-28.
17. 니고라. (2017). Empowering Women Sports Leaders in Uzbekistan A critical analysis of transforming the role of Women in Sports Management (Doctoral dissertation, 서울대학교 대학원).
18. Махмудова, Г. Н., & Гуломова, Н. Ф. (2023). Unlocking the potential of the digital economy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. *π-Economy*, 16(4), 7-25.
19. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. Tamaddun Nuri Jurnali, 5(56), 380-383.
20. Махмудова, Г. Н., & Гуломова, Н. Ф. (2023). Проблемы формирование цифровой экономики в странах ЕАЭС. In ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ ПЛАТФОРМЕННАЯ ЭКОНОМИКА: ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ (pp. 10-48).
21. Sharifovna, R. S. (2022). Teaching Spoken English To Upper Class Pupils. Conferencea, 6(6), 87-89.
22. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. Journal of new century innovations, 14(1), 86-98.